



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN XISSASI

Bekmirzaev Dostonbek Xayrillo o'g'li

Andijon davlat uniuersiteti

“O'zbekiston tarixi” kafedrası magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7584599>

ARTICLE INFO

Received: 20th January 2023

Accepted: 29th January 2023

Online: 30th January 2023

KEY WORDS

Ikkinchi jahon urushi, buyuk g'alaba, fashizm, militarizm, arsenal, besh yillik rejalar, kanop, shakarqamish, arpa, triq, bug'doy, poliz ekinlari, front gazetalari.

ABSTRACT

Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlarining fashizm va yapon militarizmi ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan xissasini mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixshunosligida yaratilgan yangi tadqiqotlar asosida yoritilgan.

Ikkinchi jahon urushida Germaniya-fashizmi hamda Yaponiya militarizmini tor-mor ketirish uchun olib borilgan umumxalq kurashida o'zbek dehqonlarining fidokorona mehnati ham alohida ahamiyatga egadir. SSSRning bir qancha muhim qishloq xo'jalik rayonlari dushman tomonidan vaqtincha okkupatsiya qilinib turganligi sababli qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirishning asosiy og'irligi mamlakatning sharqiy rayonlari, shu jumladan, O'zbekiston SSRning ham zimmasiga tushgan edi. Shu sababli O'zbekiston qishloq xo'jaligi oldida urush boshlanishi bilan front va mamlakat ichkarisini qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan, sanoatni homashyo bilan barqaror ta'minlashdan iborat mas'uliyatli vazifa ko'ndalang bo'lib turdi. Buning uchun agrar ishlab chiqarishni g'oyat qichqa muddat ichida, butun xalq ho'jaligi kabi, harbiy izga o'tishi lozim edi. Qishloq ho'jaligining barcha moddiy resurslarini safarbar etish, texnika ekinlari, don, kartoshka va sabzovot ekinlarini ekishni ko'paytirish zarur g'edi. Respublika chorvadorlari oldida ham jiddiy vazifalar turardi, ular armiya uchun ham, aholi uchun ham go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishlari kerak edi.

Urush tufayli ro'y bergan SSSR qishloq xo'jaligidagi yo'qotishlarning og'irligini O'zbekiston kabi front orti hududlari ko'tarishi kerak edi. 1941 yil 17 noyabrda qabul qilingan VKP(b) MK va SSSR Ministrlar Sovetining qo'shma qarorida Ittifoq miqyosida O'zbekiston qishloq xo'jaligi oldida turgan asosiy vazifalarni belgilab berildi. Qarorda frontni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari bilan ta'minlashda, don, texnika ekinlari va sabzavotlar hosilini ko'paytirishda Ural, Sibir, O'rta Osiyo va Qozog'istonning alohida o'rni qayd etilgan edi[1.168].

Ma'lumki, urishdan oldingi yillarda g'alla va bir qancha boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, asosan, Rossiya, Ukraina va Belorussiyada yetishtirilgan. Harbiy harakatlar natijasida ushbu hududlarning fashistlar Germaniyasi tomonidan bosib olinishi ba'zi qishloq xo'jaligi ekinlarini



yetishtirishni keskinamayib ketishiga olib keldi. Masalan, urishgacha Ittifoq bo'yicha yetishtiriladigan shakar 87 foizi Ukraina SSR hissasiga to'g'ri kelar edi[2.96]. 1942 yilda Ukrainaning dushman tomonidan bosib olinishi va RSFSR da qand lavlagi hosilining 4 baravarga qiqarishi shakar bilan ta'minot masalasini qiyinlashtirdi. Yo'qotilgan qand lavlagi maydonlarini sharqiy hududlar, jumladan, O'zbekistonda tiklash ishlari boshlab yuborildi.

O'zbekiston dehqonlari qandlavlagi yetishtirishni jadal o'zlashtirishga katta e'tibor qaratdilar. 1942 yilning o'zida maxsus kurslarda lavlagikorlik brigadalari va zvenolari uchun 270 ta rahbar kadr tayyorlandi. 1942 yilda qandlavlagini yetishtirishga Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo oblastlarida eng xosildor va suv bilan ta'min etilgan 65 ming gektar yer ajratildi[3.446]. 1943 yilda qishloq mehnatkashlari davlatga 1565 000 sentner qand lavlagi topshirdilar[3.447]. 1942 yilda qand lavlagi hosildorligi 162 va 1944 yilda esa 260 sentner bo'ldi[4.143]. Bu davrda O'zbekiston butun mamlakatda yetishtiriladigan qand lavlagining chorak qismini ishlab chiqara boshladi. Bu esa, faqat respublikadagi qand ishlab chiqarish zavodlarinigina emas, balki boshqa respublikalarni ham qand lavlagisi bilan ta'minlash imkonini berdi. Shu bois ham O'zbekistonda urush yillarida qand lavlagi, zig'ir, kunjut va boshqa shu kabi texnika ekinlari ekilayotgan maydonlar kengaytirildi. Samarqan, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo oblastlari qand lavlagining ikkinchi vatani bo'lib qoldi.

Respublika iqtisodiyotini, qishloq xo'jaligini urush davri ehtiyojlariga moslab qayta qurish yo'li SSSR Xalq Komissarlari Sovetining "Volga bo'yi, Ural, G'arbiy Sibir, Qozog'iston va O'rta Osiyo rayonlari bo'yicha 1941 yilning 4 choragiga va 1942 yilga mo'ljallangan harbiy xo'jalik rejasi to'g'risida" 1941 yil 16 avgustdagi qarorida, shuningdek, O'zbekiston KP Markaziy Komiteti V plenumining qarorlarida ham atroflicha belgilab berilgandi[3.448].

Qarorda qayd etilgan vazifalarga ko'ra O'zbekiston SSRda birinchi navbatda paxtaning xosildorligini, chorvachilikning mahsuldorligini oshirish, don va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishni ikki baravar ko'paytirish, bu yerlarda ilgari ekilmagan, yoki yetishtirilmagan qand lavlagi ekinlarini yetishtirishni o'zlashtirish uqtirilgan edi. Chunki qand lavlagi respublikaga Ukrainadan ko'chirib keltirilgan qand zavodlari uchun kerakli hom ashyo xisoblanardi.

Bu vazifalarni hal qilish bir qator omillar tufayli murakkablashib ketgan edi. Birinchidan, Markazning ko'p yillardan buyon paxta yakkahokimligini o'tkazib kelayotganligi sababli O'zbekiston SSR dehqonchiligining butun tarkibi, asosan, paxta yetishtirishga moslashtirilgan edi. Don ekinlari yetishtirish respublika qishloq xo'jaligida ikkinchi darajali o'rinni egallardi. G'alla, asosan, RSFSR va Ukramnadan tashib keltirilar edi. G'alla yetishtiriladigan rayonlarni dushman bosib olganligi sababali O'zbekistonning agrar tarmog'i oldiga respublikani o'z g'allasi bilan o'zini ta'minlash, qolaversa oshirib frontga yetkazish vazifasi qo'yildi. Xolbuki, buning uchun zarur texnika va mutaxassislar yo'q, ajdodlar tajribasi ancha unitilgan edi. Buning ustiga stalincha ma'muriyat O'zbekiston rahbariyati oldiga "oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlash" vazifasini qo'yar ekan, aslo paxta ekishni kamaytirishni istamas edi, paxtachilik respublika qishloq xo'jaligining yetakchi yo'nalishi sifatida qaralar edi, uni yetishtirishni aksincha ko'paytirish zarur deb qaralardi. Chunki urush sharoitida paxta mudofaa sanoati uchun g'oyat muhim homashyo maxsuloti xisoblanar edi.

Ikkinchidan, urush boshlanishi bilan agrar ishlab chiqarishning moddiy texnika bazasi zaiflashib qolgan edi. Ob'ektiv voqeliklar tufayli MTS, kolxozlar, savxozlarning transport



vositalari izchillik bilan qisqarib bordi. Traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari yetkazib berilishi amalda to'xtatildi. Mavjud texnikalarga kerakli asbob uskunalar, ta'mirlash uchun kerakli asbob uskunalar ham deyarli kelmay qoldi. Agrar korxonalarini ehtiyot qimslari, mineral o'g'itlar va yonilg'i bilan ta'minlash keskin kamaytirildi. Natijada qo'l mehnatining ulushi haddan tashqari ortib ketdi, ot-ulov bilan bajariladigan ishlar hajmi ko'paydi. Asosan sigirlar bilan yer haydalardi. Ota-bobolarimizdan qolgan omoch kabi oddiy mehnat qurollaridan keng foydalanildi.

Uchinchidan, kadrlar masalasi sezilarli ravishda keskinlashdi. Urush frontga malakali kadrlar va mehnatga layoqatli qishloq aholisining ko'p qismini armiyaga jalb qilgan edi. O'zbekistonda 155 mingdan ortiq ishga yaroqli kishilar mehnat batalonlari (trudoviklar)ga mardikor sifatida safarbar qilinib, Rossiyaning harbiy sanoati va qurilish ishlariga yuborilgan edi. Buning natijasida 1941-1942 yillardayoq O'zbekistonda mehnatga yaroqlik kolxozchilarning soni 20 foiz, 1945 yilga kelib 40 foizga qisqardi[5.20]. Ayniqsa mexanizatorlar korpusi sezilarli sur'atda qisqardi. Masalan, agar urush boshlarida mexanizatorlar va kombayinchilarning umumiy soni 27888 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1942 yilda esa ularning soni 2775 kishiga tushib qoldi, 1943 yilga kelib bundan ham kamayib ketdi[5.20]. Ishlab chiqarishga xotin-qizlar, keksalar, o'smirlar keng jalb qilindi, ular hisobiga sanoatda bo'lgani kabi, qishloq xo'jaligida ham erkaklar o'rni anchagina qoplandi.

Mana shunday murakkab sharoitda qishloq xo'jaligining hal qiluvchi uchastkalarida og'ir mehnatni asosan qariyalar, ayollar va voyaga yetmagan bolalar o'z zimmasiga olishga majbur bo'ldi. Qishloq xo'jalik xodimlari o'z bilim hamda salohiyatini ekin maydonlaridan to'g'ri va unimli foydalanishga, mehnat unimdorligini va qishloq xo'jalik ekinalarining hosildorligini oshirishga, chorvachilikni rivojlantirishga safarbar qildi.

Sobiq Ittifoqning G'arbiy rayonlari vaqtincha okkupatsiya qilinib turganligi sababli respublikaga keltirilayotgan g'allaning miqdori keskin kamayib ketgan edi, shu sababli aholini, shuningdek frontdagilarni respublikaning o'zida yetishtirilgan g'alla bilan ta'minlash, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish kerak bo'lib qoldi. Urush davri sababli vujudga kelgan qiyin sharoitga qaramasdan, oldindagi vazifalar har qancha murakkab va qiyin bo'lmasin bajarilishi lozim edi. Shu boisdan ham ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida qishloq xo'jaligidagi faoliyatni rejali tashkillanib, mehnatni to'g'ri tashkil etishga hamda moddiy-texnika bazasidan unimli foydalanishga asoslanib muvaffaqiyatli hal qilina bordi.

"Mehnat intizomini mustahkamlash" sohasida O'zbekistonda ham ko'plab haddan oshishlar sodir qilindi. Biroq barcha qiyinchiliklar va mahrumliklarga qaramasdan, qishloq mehnatkashlari qalb, burch va or-nomus da'vati bilan frontga yordam ko'rsatish uchun umumxalq yurishiga faollik bilan qo'shildilar. Chunonchi, Sariosiyo tumanidan kolxozchi ayol M. Xidirova 40 kunda 10800 kg paxta terib berdi. Shu tumandagi "Ittifoq" qishloq xo'jalik artelining kolxozchilari Sh. Bobojonova, A. Yoqubova, M. Azimovalar frontchasiga mehnat qilishdi. Ular kundalik majburiyatlarini 2-3 baravardan kam bajarmas edilar.

Bu xildagi fidokorona mehnat namunalarini hamma joyda kuzatish mumkin edi. Natijada 1941 yilning paxta tayyorlash rejasi O'zbekistonda 1940 yildagiga nisbatan 45 kun ilgari bajarildi. Davlatga 1646 000 tonna "oq oltin" topshirildi[6.94]. Agrar ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari bo'yicha ham yuqori ko'rsatichikalarga erishildi. Dehqonlar 1942 yil



xosiliga zarur shart-sharoit yaratish uchun kurashga darhol kirishdilar. Avvalo g'alla va texnik ekinlar maydonlarini kengaytirish uchun qo'shimcha yerlar o'zlashtirishga va yer fondidan samaraliroq foydalanishga katta e'tibor berildi. Natijada 1942 yil bahoriga kelib qo'shimcha ravishda 220,5 ming ga yangi hosildor yerlar o'zlashtirildi[5.21]. 1942 yil bahorida respublika dalalarida 65 ming gektar yerga qand lavlagi ekildi. Umuman urush yillarida qand lavlagi, zig'ir, kunjut va boshqa shu kabi texnika ekinlari ekilayotgan maydonlar kengaytirildi. Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari qand lavlagining ikkinchi vatani bo'lib qoldi. Qand lavlagi ekilgan xududlardan bir yarim ming sentnergacha xosil olindi[5.21]. 1942 yilning o'zidagina maxsus kurslarda lavlagikorlik brigadalari va zvenolari uchun 270 rahbar tayorlandi[7.473].

O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlari oziq-ovqat ekinlaridan bo'lgan kungaboqar yetishtirishni ham muvaffaqiyatli o'zlashtirdilar, shuningdek, zig'ir va kanop singari texnika ekinlarini ham yetishtira boshladilar, makajo'xori, kunjit yetishtirishni keskin ko'paytirdilar. Hususan, 1942 yilda respublikadagi kunjit ekilgan maydonlar butun SSSRdagi kunjit ekiladigan maydonlarning 50 foizini tashkil qilgan edi[6.79].

Respublikaning shaharlari aholisi evakutsiya qilingan millatlar hamda ko'chirib keltirilgan kishilar hisobiga ko'payib bordi. Ularni oziq-ovqat bilan ta'minlashni ko'paytirish zarur bo'lib qolganligi tufayli respublikaning sanoat markazlari atrofida sabzovotchilik bazalari kengaytirildi.

Urush tufayli O'zbekistonda qishloq xo'jalik ekinlarining nisbati sezilarli ravishda o'zgardi. Agar urushdan oldingi yillarda har bir tumanda ekin ekiladigan maydonlarning 90 foiziga paxta ekini to'g'ri kelgan bo'lsa, urush yillarida bu maydonlar birmuncha kamaydi. Masalan, Farg'ona oblastida paxta ekiladigan maydonlar 51 foizga tushib qoldi. Qolgan sug'oriladigan yerlarga boshqa qishloq xo'jalik ekinlari, shu jumladan, 25 foiz yerga g'alla, 4 foiz yerga sabzavot va poliz ekinlari, 16 foiz maydonga beda ekildi[8.164]. Bu tadbir, shakshubhasiz, ijobiy xususiyatga ega bo'ldi. Paxta yakkahokimligining cheklanishi oziq-ovqat resurslarini zaurur miqdorda ko'paytirish imkonini berdi. Urush davrida respublika g'allakorlari mamlakatga 82 mln. pud g'alla, 233 ming sentner sholi yetkazib berdilar[6.79].

Urush yillarida Respublikada sabzovot-poliz ekinlari ekilgan maydonlar ko'paytirilib, 1939 yildagi 16,5 ming gektardan 1942 yilda 29 ming gektarga yetkazildi. SSSRning dushmanidan ozod qilingan g'arbiy rayonlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga yordamlash zarur bo'lib qolgan keyingi yillarda respublikada sabzovot ekilgan maydon yana ham ko'proq kengaytirildi[7.25].

O'zbekiston qishloq xo'jalik xodimlari 104 556 tonna sabzovot mahsulotlarini davlatga topshirib bu borada ham reja majburiyatlarini ortig'i bilan bajardilar. Ho'l va quruq mevalarni yetishtirishni ko'paytirib bordilar. Bu meva mahsulotlarini frontga, Moskva, Piterburg va boshqa sobiq Ittifoqning shaharlariga ko'plab miqdorda yuborilib turildi.

Don ekilgan maydon 35 ming gektar kengaytirilganligi sababli paxta maydoni kamaydi. Bedapoyayalarni kamaytirish hisobiga kartoshka, sabzavot, poliz ekin maydonlari ko'paytirildi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishdagi va uning strukturasiidagi mana shu o'zgarishlarning hammasi noilajlik tufayli vaqtincha ko'rilgan choralar edi.

Urush davrining birinchi qishloq xo'jalik mavsumidayoq respublika o'z dalarida yetishtirilgan g'alla bilan o'zini ta'minlay oldi, oshiqcha g'allani boshqa respublikalar hamda



frontdagi jangchilarga yetkazib berishga ham muvaffaq bo'ldi. Keyingi yillarda O'zbekistonda don ekilgan maydonlar ko'paytirila bordi. 1944-1945 yillarda mamlakatning g'arbiy rayonlari ozod qilinganligi munosabati bilan, endi respublikamiz qishloq xo'jaligi dalalrida donli ekinlar maydonlari yana kamaytirila boshlandi.

Ikkinchi boltiqbo'yi frontida o'zbek tilida chop etilgan "Suvorovchi" gazetasining 1944 yil 3 mart, 15 (98)-sonida "Bahorgi don ekish boshlandi" sarlavhali habardan ham shuni anglash mukinki armiyani va aholini non va non maxsulotlari bilan ta'minlashda O'zbekistonning ulushi nechog'li katta bo'lganini. Habarda 1944 yil quruq va ochiq havolardan foydalanib O'zbekiston kolxozchilari bahorgi don ekinlarini muvaffaqiyat bilan ekmoqda. Surxondaryo va Qashqadaryo oblastlaridan keyin Samarqand oblast kolxozlari g'alla ekishni rivojlantirib yubordilar. Zomin rayonida 2000 dan ortiq gektar yerga bahorgi g'alla ekildi. Oktyabr va Budyonniy nomli kolxozlar plan yuzasidan 250 gektar yerga urug' sochib, yana plandan oshirib ekishni davom ettirmoqdalar. G'alla ekish, shuningdek, Xatirchi, Jizzax va Narpay rayonlarida ham bormoqda. Samarqand oblast kolxozlari hammasi bo'lib 6000 gektarga yaqin yerga bahorgi g'alla ekdilar[8.242].

Respublika bo'yicha 30000 gektarga yaqin yerga bahorgi g'alla sochildi, deya yozilgan. Bundan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda urush yillarida qizil armiya hamda aholini non bilan ta'minlash uchun paxta maydonlarini saqlab qolgan xolda ham don ekinlarini ekish ishlari keng ko'lamda olib borilgan.

Urush yillarida o'zbek dehqonlari donning erta pishar va yuqori xosilli navlarini yaratish, ya'ni, seleksiya ishlarini ham yuqori saviyada tashkillaganlar. "Suvorovchi" gazetasining 1944 yil 16 avgust, 51 (134)-sonida "Jonajon o'lkamizda" rukni ostidagi "Gektaridan 28 sentner hosil" nomli habarda Zomin rayoni Uttikechuv qishloq sovetidagi "Leninizm" kolxozida kolxoz raisi o'rtoq Xolmatov tomonidan topilgan uzun boshqoqli yangi nav bug'doydan mo'l hosil olinmoqda. Bu na bug'doy har turli kasalliklarga chidamli bo'lib, boshqa navlarga qaraganda ancha yuqori hosil beradi. Kolxoz bu yangi navli bug'doydan 70 gektar yerga yetadigan urug'lik tayyorladi.

Bu yil Krupskaya nomli kolxoz uzun boshqoqli bug'doy urug'idan olib ozgina yerga tajriba uchun ekan edi. Natijada bu tajriba uchastkasidan har gektaridan 28 sentnerdan hosil olindi. Rayondagi kolxozlarda uzun boshqoqli bug'doy urug'i ekin maydoni tobora ko'paytirilayotir[8.242], -deya yoziladi.

1945 yil O'zbekiston kolxoz va sovxozlari davlatga g'alla topshirish rejasini 23 avgustda 100 foizga bajardilar. 1946 yil uchun urug'likni ham tayyorlab qo'ygandi[9.293].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ikkinchi jahon urush yillarida O'zbekiston SSRda qishloq xo'jalik ekinlarining nisbati sezilarli ravishda o'zgardi. Agar urushdan oldin har bir tumanda ekin ekilgan maydonlarning 90 foizi paxta hisobiga to'g'ri kelsa, urush yillarida bu maydonlar birmuncha kamaydi. Masalan, Farg'ona oblastida paxta ekiladigan maydonlar 51 foizga tushib qoldi. Qolgan sug'oriladigan yerlarga boshqa qishloq xo'jalik ekinlari, shu jumladan 25 foiz yerga g'alla, 4 foiz yerga sabzovot va poliz ekinlari, 16 foiz maydonga beda ekildi[6.79]. Bu tadbir, shak-shubhasiz, ijobiy xususiyatga ega bo'ldi. Paxta yakkaxokimligining cheklanishi oziq-ovqat resurslarini zarur miqdorda ko'paytirish imkonini berdi. Urush davrida respublika g'allakorlari mamlakatga 82 mln. Pud g'alla, 213 ming sentner sholi yetkazib berdilar[6.96].



1941-1945 yillardagi urush bizga tarixiy saboq berishi kerak. Xalqimiz urush tufayli yuzaga kelgan barcha qiyinchiliklarni zimmasiga oldi, har bir jabhada astoydil mehnat qildi va yuksak insoniylik namunasini ko'rsatdi. Ammo partiya va sovet rahbariyati o'zbek xalqining bu fidokorona shijoatini odatiy jarayon deb tushundi, mehnat ahlining qadriga yetmadi. Buni Markazning urushdan keyingi davrda ham ulug' davlatchilik siyosati asosida O'zbekiston qishloq xo'jaligini faqat paxtachilikka ixtisoslashtirish yo'lidan olib borganligida ko'ramiz. Bu paxta yakka hokimligining yanada kuchayishiga olib keldi. O'zbekiston SSSRning xom ashyo bazasi bo'lib qoldi.

References:

1. История Великой Отечественной войны Советского Союза 1941-1945 гг. –Москва: Воениздат, 1961.
2. Народное хозяйства СССР в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. Статистический сборник. –Ташкент, 1978.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
4. Тилеукулов С. Социалистические преобразования орашаемого земледелия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1981.
5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.
6. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.) Том 1. – Ташкент: Фан, 1981.
7. Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги даврдан ҳозирги кунларгача. –Тошкент: Фан, 1974.
8. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Биринчи китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2017.
9. “Ватан учун”, 18 сентябр, №18 (331)-сон. ; Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Тўртинчи китоб. –Тошкент: Akademnashr, 2020.